

XO‘JALIK YURITISHDA UY MEHNATI, KOOPERATSIYA VA KLAUSTER TUSHUNCHALARINING O‘ZARO UYG‘UNLIGI

Aynaqulov Xusniddin Abduxamidovich

*Jizzax Politexnika instituti “Muhandislik va kompyuter grafikasi”
kafedrasi katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya. *Maqolada kasanachilik, kooperatsiya va klasterlar tushunchalariga ta‘rif berilgan va ularning o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan bo‘lib, unda kasanachilikning oilaviy mehnat faoliyati bilan uyg‘unlashuvi bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar. *Kasanachilik, kooperatsiya, klaster, oila, YaIM, mulqot-naflilik zanjiri, mehnat resurslari.*

Аннотация: *В статье описываются понятия домашнего труда, кооперация и кластеров, а также объясняется их взаимосвязь, а также сочетание домашнего труда с семейным трудом.*

Ключевые слова: *Надомный труд, кооперация, кластер, семья, ВВП, коммуникационная цепь, трудовые ресурсы.*

Annotation: *The article describes the concepts of home work, cooperation and clusters, and also explains their relationship, as well as the combination of home work with family work.*

Keywords: *Home-based work, cooperation, cluster, family, GDP, communication chain, labor resources.*

So‘nggi paytlarda ilmiy adabiyotlarimizga kasanachilik, kooperatsiya va klaster atamaları bir-biriga bog‘langan holda kirib kelmoqda.

Xo‘sh mazkur atamalarning ma‘nosi nima va ular bir-biri bilan qanday aloqada?

Avvalombor, kasanachilik oiladan uy xo‘jaligidan boshlanadi.

Oila –an’anaviy tarzda nikoh-qarindoshchilik munosabatlari asosida hayot kechirishni, birgalikda yashashni bildiradi. Oilaning asosiy maqsadli funksiyasi- insonni dunyoga keltirish, uy xo‘jaliginiki esa–inson salohiyatini qayta tiklashdir. Shu nuqtai–nazardan, uy xo‘jaligining asosiy funksiyasini inson kapitalini ishlab chiqarish, realizatsiya qilish va asrash sifatida belgilash lozim. Inson kapitali, o‘z navbatida, insonning bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va mehnat sa‘y-harakatlari yig‘indisi sifatida tushuniladi. Oilada farzand voyaga yetib uy xo‘jaligida topilgan daromad hisobidan ma‘lum bir xarajatlar evaziga bilim

ko'nikma, malaka bilan salohiyatga ega bo'lib mehnat resurslari safiga kelib qo'shiladi. Mehnat resurslari esa o'z navbatida milliy iqtisodiyot ishtirokchisi, uni rivojlantiruvchi, siljitivchi, uning YaIMini to'ldiruvchi sub'yektdir.

Mehnat resurslari maqsad ila qurilish tashkiloti faolyatida mehnat qiladi, innovatsion faolyatga kirishadi. Mazkur yo'nalishda o'z-o'zidan kooperatsiyaga zaruriyat paydo bo'ladi. O'z mohiyatiga ko'ra qurilish ishlab chiqarishi (xizmat ko'rsatishi) kooperatsiyasi umumiy maqsadlarga erishish uchun jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriy birlashuvini yoki o'zaro hamkorlik qilishini o'zida nomoyon qiladi.

Darhaqiqat, qurilish majmuasi ishtirokchilarida sanalgan jismoniy va yuridik shaxslarda ham har xil iste'mol tovarlariga va xizmatlarga bo'lgan ehtiyoj ularda o'z-o'zidan turli xildagi iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar bilan muloqatga kirishishiga zarurat tug'diradi. Ko'p hollarda iqtisodiy jihatdan nafaol aholi qatlamlari, shuningdek, vaqtincha band bo'lmagan shaxslar uy sharoitida, ya'ni farzand tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lgan ayollar, hunarmandlar, kosiblar uy mehnatiga asoslangan kasanachilikka kirishadilar.

O'z navbatida ta'kidlash joizki, kasanachilik faolyati ham ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish kooperatsiyasi orqali amalga oshiriladi. Hukumat qarori bilan kasanachilik to'grisidagi Nizom tasdiqlangan. Zero, mazkur hujjatda ko'zda tutilgan tadbirlarni hayotga tadbiq etish bir qator ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etish inkonyatini beradi. Xususan, ish bilan band bo'lmagan aholini qurilish ishlab chiqarishiga (xizmat ko'rsatishiga) jalb etish, oila byudjeti daromadlarini ko'paytirish, uy mehnatidan foydalangan holda karkaslar, beton qoliplar, butlovchi qismlar tayyor mahsulotlarning ayrim turlarini ishlab chiqarish va ba'zi bir xizmatlar ko'rsatishini tashkil etish yo'li bilan yirik korxonalar faolyati samaradorligini oshirishga erishish mumkin.

Kasanachilik -16 yoshdagi va undan katta yoshdagi (agarda kasanachilik xususiyati kasanachi bilan to'liq yakka tartibdagi moddiy javobgarlik to'g'risida shartnoma tuzilishi zarurligini talab etsa, 18 yoshdagi) jismoniy shaxs ya'ni

kasanachi tomonidan ish beruvchi bilan shartnoma asosida ish beruvchining ishlab chiqarish joyidan tashqarida o'z uyida yoki o'ziga yoxud uning oila a'zolariga tegishli boshqa joyda ish beruvchining buyurtmasiga binoan mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish maqsadida ishlarni bajarish bilan bog'liq faolyat hisoblanadi.

O'z-o'zidan ma'lumki, qishloq joylaridagi kam ta'minlangan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni temir daftarga yoki yoshlar daftarga kiritish va o'z navbatida ularni ish bilan ta'minlash davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Hozirgi kunlarda bir shaxsning ikkinchi bir shaxs (jismoniy yoki yuridik) bilan faolyatlari samaradorlik jihatidan bir-biri bilan uyg'unlashuvi talab qilinarkan, ular muloqoti ma'lum bir masofaviy xarakterga ega bo'lsa bu jarayon o'z navbatida albatta, ma'lum vaqt bilan birgalikda ma'lum xarajatlarni ham talab qiladi. Shundan kelib chiqqan holda ular faolyatini uyg'unlashtiruvchi **“muloqot-naflilik zanjiri”** lozim bo'ladi.

“Muloqot-naflilik zanjiri” ning bir xo'jalik yuritish doirasida amalga oshirilishi xo'jalik klasterini vujudga keltiradi. Xo'jalik klasteri ham o'z mohiyatiga ko'ra yagona texnologik zanjirga birlashtirilgan xo'jaliklar majmui bo'lib u ilm-fan, ta'lim hamda ularning o'zaro hamkorligini chuqurlashtirish, yangi texnologiyalarni amaliyotga jadal joriy etish imkoniyatini o'zida namoyon etadi. Xo'jalik klasterining asosiy negizini xo'jalik yuritish kooperatsiyasi tashkil etadi. O'z navbatida, kooperatsion aloqalar hamkorlik bosqichi bo'yicha texnologik bog'lam, texnologik to'plamga aylanib xo'jalik klasterini vujudga keltiradi. Klasterning pirovardida xom ashyo qayta ishlashning barcha bosqichidan o'tib eksportbop tayyor mahsulotga aylanadi.

Klasterni yaratish pirovardida olimlar, iqtisodchilar, qurilish-montaj, sanoat tashkiloti, shuningdek, infratuzilmaviy tashkilotlar va ularning ilg'or tajribasini yagona maqsad yo'lida birlashtirishni taqozo etadi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlanganidek, “Xo'jalik yuritishlarni asta sekinlik bilan klaster shakliga bosqichma-bosqich o'tkazish bo'yicha izlanishlarimizni davom

ettiramiz. Parlamentimiz ushbu islohotlarimizning huquqiy asosi bo‘lgan **“Kooperatsiya va klasterlar to‘g‘risida”** gi yangi qonunni tezroq qabul qilsa ushbu katta reja va niyatlarimizga mos ish bo‘lur edi”.

Bugungi kunda mamlakatimizda mazkur jarayonlarning huquqiy asosi yaratilgan bo‘lib ular jumlasiga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 11-yanvardagi 4-son qarori bilan tasdiqlangan “Kasanachilik to‘g‘risidagi Nizom”, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Kooperatsiya to‘g‘risidagi” Qonuni kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги 2022 йил 28-январдаги ПФ-60 сонли Фармони.

2. В.В.Веркинoв, М.А.Аунақулoв. “Кичик тadbirkorlik korxonalarining yirik korxonalar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi ”. Jizzax.: 2004-114 b.

3. В.В.Веркинoв. “Kooperatsiyaga asoslangan kasanachilik”. Ilmiy-ommabop nashr.TDIU.: 2008-30 b.